

Shaytonning fikri



17:32 / 19.09.2019 3372

3

Shayton odamlarni butlarga ibodat qilishga chaqirishni va ularni do'zaxga kirib, hech qachon jannatga kirmasliklarini ko'zladi. Shayton bilar ediki, albatta Alloh shirkni kechirmaydi, (undan boshqa) barcha narsani o'zi xohlasa kechiradi. Shayton insonlarni, ular hech qachon jannatga kirmasliklari uchun shirkka da'vat qilishni xohladi. Lekin uning yo'li qanday bo'ladi, insonlar axir Allohga ibodat qiladilar-ku? Albatta u insonlarning oldilariga kelib: "Sizlar butlarga ibodat qilinglar, Allohga ibodat qilmanglar" desa, odamlar uni so'kib, uradilar-ku? Ular: "Alloh saqlasin, robbimizga shirk keltiramizmi? Butlarga ibodat qilamizmi? Albatta sen quvilgan shaytonsan! Albatta sen iflos shaytonsan!" deyishadi-ku?